



ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINI O‘QITISHDA SAMARALI USULLAR VA NATIJALAR.

Eraliyeva Noira Halimjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

+998932721903

eraliyevanoira@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qahhor hikoyalarini umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishda qo‘llaniladigan samarali pedagogik usullar tahlil qilinadi. Hikoyalarni o‘rganishda interfaol metodlar, badiiy tahlil, muammoli savollar va ijodiy topshiriqlarning o‘quvchilar tafakkuri hamda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu usullar ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tahlil, interfaol metodlar, nutqiy kompetensiya, g‘oya va mazmun, tanqidiy fikrlash, ijodiy topshiriqlar, muammoli ta’lim, badiiy tahlil.*

Аннотация. *В данной статье анализируются эффективные педагогические методы, используемые при преподавании рассказов Абдуллы Каххара, крупного представителя узбекской литературы, в общеобразовательных школах и высших учебных заведениях. При изучении рассказов на основе примеров освещается роль интерактивных методов, художественного анализа, проблемных вопросов и творческих заданий в развитии мышления и речевой компетенции учащихся. Результаты исследования показывают, что эти методы повышают эффективность обучения.*

Ключевые слова: *художественный анализ, интерактивные методы, речевая компетенция, идея и содержание, критическое мышление, творческие задания, проблемное обучение, художественный анализ.*

Abstract. *This article analyzes the effective pedagogical methods used in teaching the stories of Abdulla Qahhor, a prominent representative of Uzbek literature, in general education schools and higher education institutions. The role of interactive methods, artistic analysis, problem questions, and creative tasks in the development of students' thinking and speech competence in the study of stories is highlighted on the basis of examples. The research results show that these methods increase the effectiveness of education.*

Keywords: *artistic analysis, interactive methods, speech competence, idea and content, critical thinking, creative tasks, problem-based learning, artistic analysis.*

Kirish

Abdulla Qahhor o‘zbek nasrida realistik hikoyachilik maktabini shakllantirgan ijodkorlardan biridir. Abdulla Qahhor adabiyot olamiga hikoya janrining tengsiz ustasi.



bo‘lib kirdi. Yozuvchini hatto o‘zbek Chexovi deb ham atashadi. Uning ilk kitobi “Qishloq hukm ostida” nomli kichik qissa 1932-yilda nashrdan chiqqan. Shundan so‘ng yozuvchining “Olam yasharadi” va “Tangrining kulgisi” degan to‘plamlari bosildi. Adibning “Boshsiz odam” hikoyasi ayol qadr-qimmati, ozodligini kuylovchi asar hisoblanadi. Uning “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Anor”, “Sinchalak”, “Dahshat” kabi hikoyalari hayotiyli, xalqona tili va chuqur ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarni o‘qitish jarayonida faqat mazmunni bayon qilish emas, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Zamonaviy ta‘lim talablari adabiyot darslarida an‘anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion va interfaol metodlarni qo‘llashni taqozo etadi. Shu bois mazkur maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘qitishda samarali usullar va ularning natijalari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi.

Metodologiya

Abdulla Qahhor ijodiy hayoti mobaynida 40 dan ortiq asar yozgan. Bu kitoblar orasida 30 taga yaqin hikoyalar bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani bilan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, adib ijodida hikoya janri o‘zining badiiy barkamolligini topgan. Shu jihatdan ham o‘quvchilarga adib ijodini to‘laligicha anglatish uchun uning hikoyalarini turli samarali usullar asosida o‘qitish talab etiladi. Ta‘limda badiiy tahlil metodi eng ko‘p foydalaniladigan va samarali usullardan biri sanaladi. Bu usul orqali adib hikoyalaridagi obraz, syujet, konflikt va g‘oyani ochib berish imkoniyati mavjud bo‘ladi. O‘quvchi badiiy tahlil jarayonida adabiyotshunoslikka doir murakkab terminlarni nima ekanligini anglaydi va voqealarga yaxshiroq tushunadi.

Bugungi ta‘lim tizimi o‘zgaruvchan va rivojlanayotgan dunyoga moslashish jarayonida yangi metodlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ta‘limni samarali tashkil etish va o‘quvchilarda haqiqiy bilimni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, muammoli ta‘lim metodlari (problem-based learning, PBL) o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash,

ijodkorlik, hamkorlik va mustaqil ishlash kabi muhim ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Bu metod maktab ta‘limini nafaqat ilmiy jihatdan, balki shaxsiy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilarga muammo taqdim etadi va ularni yechishga yordam beradi, ammo ularga to‘g‘ridan to‘g‘ri yechimni bermaydi. Aslida, Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘zi ham o‘quvchiga muammo taqdim etadi. Masalan, “O‘g‘ri” hikoyasining yakuni muammo tarzida tugallanadi. Yakunni o‘quvchi o‘zi fikrlab davom ettirishi mumkin. Agar o‘quvchi bunga qiynalsa, o‘qituvchi unga ko‘maklashishi lozim bo‘ladi. Bu muammoli ta‘limning bir ko‘rinishi sanaladi.

Shuningdek, dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi va natijalarini baholashni osonlashtirish uchun turli interfaol metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Shunday metodlar sirasiga “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Rolga kirish” kabilarni kiritishimiz mumkin.

Natijalar

Abdulla Qahhor hikoyalarini o'qitishda samarali usullar quyidagi natijalarni berganligini ta'kidlashimiz mumkin: "O'g'ri" hikoyasi misolida

Muammoli savol: "Hikoyadagi haqiqiy o'g'ri kim?" Ushbu savol orqali o'quvchilar jamiyatdagi adolatsizlik, mansabdorlarning mas'uliyatsizligi haqida mustaqil xulosa chiqardilar. "Bemor" hikoyasini "Rolga kirish" metodi orqali o'rganish. O'quvchilar bemor, tabib va yaqinlar roliga chiqish qilib, obrazlarning ruhiy holatini chuqur angladilar. "Anor" hikoyasida klaster tuzish

Anor obrazi atrofida mehr, oilaviy munosabat, sabr va muhabbat tushunchalari ochib berildi. Natijada o'quvchilarning:

- matnni tahlil qilish ko'nikmalari;
- og'zaki va yozma nutqi;
- badiiy tafakkuri sezilarli darajada rivojlandi.

Muhokama

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, Abdulla Qahhor hikoyalarini faqat mazmuniy bayon asosida o'qitish o'quvchini passiv tinglovchiga aylantiradi. Interfaol va muammoli metodlar esa o'quvchini dars markaziga olib chiqadi. Hikoyalardagi ijtimoiy muammolarni muhokama qilish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va hayotiy pozitsiya shakllanadi. Shuningdek, badiiy tahlil jarayonida yozuvchining til mahorati, kinoya va yumor unsurlarini ochib berish o'quvchilar estetik didini rivojlantiradi. Bu esa ham o'qituvchiga, ham o'quvchiga yutuq olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor hikoyalarini o'qitishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar, muammoli savollar va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning badiiy tafakkuri, nutqiy kompetensiyasi va ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv adabiyot darslarini mazmunan boyitib, ularni qiziqarli va samarali qiladi. Shunindek, Abdulla Qahhor asarlarining badiiyatini to'laqonli his qilish, adibning asar orqali o'quvchiga nima demoqchiligini anglash o'quvchilarda biroz qiyinchilik tug'ilgan bir paytda interfaol metodlar orqali harakat qilish, albatta, samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Qahhor A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2007.
- 2) Qahhor A. Hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
- 3) Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
- 4) Qosimov B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
- 5) Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2012.



- 6) Rahimjonov S. O'zbek nasrida hikoya janrining rivoji. – Toshkent: Fan, 2008.
7) Sayfullayeva R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.

